

oxirigacha yakuniy hisob-kitob amalga oshirilmagan hollarda mazkur iste'molchilarga nisbatan elektr tarmoqlaridan to'liq uzishgacha bo'lgan choralar ko'riladi.

Muntazam ravishda (1oydan ortiq vaqt davomida) to'lovlarni to'lamasdan kelayotgan iste'molchilar hech qanday ogohlantirishsiz tarmoqdan ajratiladi (maxsus tartibda elektr energiya yetqazib beriladigan iste'molchilar bundan mustasno).

3.7. "Ta'minotchi korxonalar" "Iste'molchi"ning energiya sarfi to'g'risidagi hisoboti asosida belgilangan tartibda hisob-kitobni amalga oshiradi va besh kun ichida to'lov amalga oshirish uchun hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini taqdim etadi. To'lov to'g'risida iste'molchini xabardor qilish ogohlantirish hisoblanadi.

"Iste'molchi" turli tarif guruhlariga tegishli bo'lgan bir nechta obyektga ega bo'lsa, har bir tarif guruhi uchun tarif ko'rsatilgan holda umumiy hisob-faktura taqdim etadiladi.

"Ta'minotchi korxonalar" tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to'lov hisob-varag'ini shakllantiriladi hamda iste'molchi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi. Agar maxsus dasturiy mahsulot orqali yetkazish imkoniyat mavjud bo'lmasa hisob-faktura va to'lov hisob-varag'i yozma shaklda beraladi.

*(Asos: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraq-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori)*

3.8. Hisobga olish pribori ushbu shartnomaga 3-ilovaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo'yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmog'ining mansublik balansi chegarasida o'rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish pribori o'rnatilgan joygacha bo'lgan uchastkada energiyaning texnologik sarflanish hajmi "Iste'molchi" bilan birgalikda hisoblash yo'li orqali aniqlanadi yoki taraflar kelishuvi asosida ushbu shartnomaga 4-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko'rsatiladi va elektr tarmog'ining balans bo'yicha mansubligiga qarab hududiy elektr tarmoqlari korxonasining va iste'molchining hisobiga o'tkaziladi. Xususiyy uy-joy mulkdorlari shirkatlari va kommunal-ekspluatatsiya tashkilotlarining ko'p qavatli uyning ichki tarmoqdagi yo'qotishlari bundan mustasno.

Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarifda to'lovlarni amalga oshiradigan "Iste'molchi" uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig'iz, yarim tig'iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to'lov haqini yozish uchun qo'shib boriladi. *(6-,7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste'molchilar to'ldiradi).*

3.9. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo'yicha iste'molchining elektr tarmog'i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga uzatilganda, iste'molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste'molchining elektr tarmog'iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasining elektr tarmog'iga iste'molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o'tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to'g'risidagi hisobot iste'molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste'molining shartnomaviy miqdori bo'yicha yoki o'tgan hisob-kitob davr uchun elektr energiyasi iste'molining o'rtacha sutkalik amaldagi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi.

Bunda hisobga olish priborlari ko'rsatkichlari nazorat tartibida Ta'minotchi korxonalar